

**Xididrov Bobur Yusuf o'g'li**

tayanch doktorant, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti.

E-mail: boburjonkhidirov@gmail.com

---

**TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKILGAN MAKKAJO'XORINI O'SISHI-  
RIVOJLANISHIGA QO'LLANILGAN ORGANIK HAMDA MINERAL  
O'G'ITLARNING TA'SIRI**

**Annotation:** Mazkur maqolada Oltinsoy tumani agroekologik sharoitida takroriy ekin sifatida ekilgan makkajo'xori ekinining o'sishi va rivojlanishiga organik hamda mineral o'g'itlarning ta'siri tahlil qilinadi. Turli o'g'it turlari va ularning ta'sir darajasi o'rganilib, hosildorlik va tuproq unumdorligiga ta'siri ilmiy asosda yoritiladi.

**Keywords:** Takroriy ekin, makkajo'xori, bug'doy, biogumus, organik chiqindi, o'sish, rivojlanish, hosildorlik.

---

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining [1] 08.02.2022 yildagi PQ-120-sonli "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturini tasliqlash to'g'risida"gi qarorida ozuqaviy qiymati yuqori bo'lgan hosildor yashil ozuqalar, jumladan, makkajo'xori ekiladigan maydonlarni kengaytirish va ularning hajmini oshirish hisobiga chorva mollarini oziqlantirish samaradorligini oshirish choralari ko'rish belgilangan.

Dunyoda hozirgi kunda aholini oziq-ovqat bilan taminlash bilan bir qatorda, mahsulotning yekologik toza yekanligiga ham ye'tibor berilmoqda. Bunda ko'zlangan hosilni yetishtirishda, biogumus, mahalliy go'ng, kul, yeski devor kessaklari, sideratlar va boshqa chiqindilardan keng foydalanilmoqda. Bular ichida biogumusning o'rne be'qiyosdir. Biogumus tuproqdagi mikroorganizmlar sonini oshirib, tuproq unumdorligini tiklaydi hamda oshiradi. Shu orqali ekinlar hosildorligini oshirishga xizmat qiladi.

Aholini sut, go'sht, tuxum mahsulotlari bilan ta'minlovchi chorvachilik, parrandachilik tarmoqlarini asosiy ozuqa manbai bo'lgan makkajo'xoriga biogumus hamda chirigan gungni qo'llab, ekologik toza yuqori va sifatli mahsulot olish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Qayd yetilishicha, organik qishloq xo'jaligini tashkil yetish va uning rivojlanishi hamda yekologik toza va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi holat respublikada oziq-ovqat xavfsizligini to'liq ta'minlashga quyidagi muammolar to'sqinlik qilmoqda:

- birinchidan, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash jarayonlarida kimyoviy pestitsidlar qo'llanilishini keskin kamaytirish, ichki va tashqi bozor uchun raqobatdosh sifatli organik mahsulotlar talab darajada tashkil yetilmagan;

- ikkinchidan, organik qishloq xo'jaligi, oziq ovqat mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish hamda nazorat qilish subektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjati qabul qilinmagan, standartlar va me'yoriy hujjatlar takominlashtirilmagan;

- uchinchidan, qishloq xo'jaligi sub'ektlarida innovatsion texnika va texnologiyalar asosida organik mahsulot yetishtirish talablari bo'yicha yetarli ma'lumot, tajriba va ko'nikma mavjud emas;

- to'rtinchidan, resurstejamkor texnika va texnologiyalarni joriy etishni targ'ib yetadigan, uning samaradorligini ifodalovchi tajriba maydonlari mavjud yemas.

Ma'lumki organik qishloq xo'jaligi - qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirishda atrof-muhitga zarar keltiradigan kimyoviy vositalardan foydalanmasdan ekologik sof mahsulot ishlab chiqarish tizimi hisoblanadi. Ayni vaqtda rivojlangan mamlakatlarda import qilinayotgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga organik tizimlariga muvofiq sertifikatlar talab yetilmoqda. Bu yesa bizning qishloq xo'jligimizda biogumus mahsulotlaridan keng foydalanishimiz zarur yekanligini bildiradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida takroriy ekinlar yetishtirish va samaradorligini oshirish uchun o'g'itlash muhim ahamiyat kasb etadi. Oltinsoy tumani iqlim sharoiti va sug'oriladigan yerlarda bug'doydan bo'shagan maydonlarda makkajo'xori yetishtirish qulay bo'lib, o'simlikning o'sishi va rivojlanishida organik va mineral o'g'itlarning roli katta. Makkajo'xorini takroriy ekin sifatida yetishtirib undan yuqori hosil olish bo'yicha juda ko'p olimlar o'z tadqiqotlarini olib borgan.

Makkajo'xori duragaylarini issiqqa, qurg'okchilikka bardoshlilikini oshirish bo'yicha horijda Tatum L. A., Brooks F. N, Genkeli P.A., Spreg Dj., Chekina T. A., Dragavtsev V.A., Mixaylenko I.M., Proskuryakov M.A., Jujukin V.I., Gudova L.A., Solovov D.P., Panfilova O.N., Chugunova Ye.V., Derunova S.N., va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Respublikamizda makkajo'xorini ekish muddatlari, qo'chat qalinligi, issiqlik, qurg'oqchilikka chidamliligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari I.Massin, A.Massin, M.Qosimov, S.Bo'riyev, X.Nazarov, F.Boboyev va boshqalar tomonidan olib borilgan. Olib borilgan ushbu tadqiqotlar natijasida ishlab chiqilgan makkajo'xorini mulchalash, ekish muddatlari, ko'chat qalinligi hamda o'g'itlash me'yori va nisbatlari bilan ishlash bo'yicha olingan natijalar ishlab chiqarishda keng qo'llanilib kelinmoqda.

B.N.Abdullayev, J.F.Ravshanov, M.Kubayeva [1], I.I.Raxmatov, S.T.Sanayev [3], Nurillayev I.X., Ismoyilov A.I., Ostonaqulov T.E. [4] lar tomonidan yozda g'alladan bo'shagan maydonlarda takroriy ekin sifatida makkajo'xori ekini ekilib tajriba qilinganda dalada qolgan somonpoyalar va o'simlik qoldiqlari hisobiga tuproqdagi oziq moddalar miqdori sezilarli darajada oshgan, maqbul muddatlarda ekilganda va tuproq iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda maqbul o'g'itlash me'yorini qo'llaganda yuqori hosildorlikka erishilga. Shu bilan bir qatorda tuproq-iqlim sharoitiga mos nav va duragaylarni tanlash ham maqsadga muvofiq keltilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir tuproq-iqlim sharoiti o'ziga xos bo'lib, avvalombor navni to'g'ri tanlash, ekish muddatini mintaqa sharoitidan kelib chiqqan holda ishlab chiqish, o'g'itlash me'yori va turini to'g'ri tanlash, inson salomatligini saqlash maqsadida ekologik toza mahsulot yetishtirish uchun organik o'g'itlardan foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Abdullayev, B. N., Ravshanov, J. F., Kubayeva, M. (2022). RESURS TEJAMKOR TEXNOLOGIYA ASOSIDA TAKRORIY EKIN YETISHTIRISHDA TUPROQNING AGROFIZIKAVIY XOSSALARI VA UNUMDORLIGI. Academic research in educational sciences, (Conference), 634-637..

2. Raxmatov, I. I., Sanaev, S. T. (2023). BUXORO VILOYATI SHAROITIDA SHIRIN MAKKAJO ‘XORI NAV VA DURAGAYLARINI TAKRORIY EKIN SIFATIDA O ‘STIRISH TEXNOLOGIYASI. Academic research in educational sciences, 4(SamTSAU Conference 1), 775-778.. .
3. Nurillayev, I. X., Ismoyilov, A. I., Ostonaqulov, T. E. (2024). ERTAGI VA TAKRORIY EKINLAR SIFATIDA TURLI MUDDATLARDI EKILGAN SABZAVOT MAKKAJO‘XORI NAVLARINING O‘SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI. Interpretation and researches.. .
4. Toshtemirovich JD, Imomov CM, Tojiyeva SO AGROTEXNIK OMILLARNI UYG‘UNLASHGAN HOLDA QO‘LLASHNING G‘O‘ZA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI //AGROINNOVATSIYA. – 2023. – T. 1. – №. 1. – S. 37-45.
5. Jumanov D.T., Ubaydullaeva SH, Tojiev S.O. G‘o‘za hosildorligiga agrotexnik omillarning ta‘siri //Ko‘p tarmoqli fan va texnika jurnali. – 2023. – T. 3. – №. 3. – S. 403-417.